**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ _BD_5120100-06
2020-yil “25” avgust

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
__________ R.I.Xalmuradov
2020-yil “__”________

# HOZIRGI ADABIY JARAYON
## FAN DASTURI
**sirtqi**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Gumanitar soha |
| **Ta’lim sohasi:** | 120000- Gumanitar fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili |

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>HAJM 1005</td><td>O‘quv yili<br>2020-2021</td><td>Semestr<br>1</td><td colspan="2">ECTS – Kreditlar<br>5</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>6</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fan nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Hozirgi adabiy jarayon</td><td>24</td><td>126</td><td>-</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishning maqsadi hozirgi adabiy jarayon fanining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, adabiy jarayon tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, bugungi talqin xususiyati haqida ma’lumot berishdan iborat.

“Adabiy jarayon”ning mohiyati, metodlari, tushunchalari va terminlarini o‘zlashtirish; fanning kategorial muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, innovatsiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdagi vazifasini ko‘rsatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. “Hozirgi adabiy jarayon” fanining maqsadi va vazifalari.**

Fanning predmeti, maqsad vazifalari va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo‘nalishlarini hozirgi adabiy jarayondagi o‘zgarishlarni tahlil eta olish.

**2-mavzu. Hozirgi hikkoyachilik va qissachilikda janriy izlanishlar.**

Janr taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, talqinlar, poetik tasvir xususiyati, adabiy tanqidiy qarashlar. Bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni tahlil qila olish, o‘zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotidagi poetik o‘zgarishlariga qiyoslash va ulardan xulosalar chiqara olish.

**3-mavzu. Hozirgi o‘zbek she’riyatida lirik qahramon talqini.**

Se’riyatning adabiy jarayondagi o‘rnini izohlash, an’anaviy va moderin she’riyatning vujudga kelish sabablarini izohlash va adabiy jarayondagi o‘rnini tahliul etish.

**4-mavzu. Modernizm va o‘zbek adabiyoti.**

Glaballashuv davrida adabiyotning roli va vazifasi, hozirgi adabiy

jarayondagi o‘zgarishlar, badiiylik mezonlari, badiiyat tarkibidagi o‘ziga xos talqin xususiyatlari va modernizm an’analari.

**5-mavzu. Adabiy jarayonda romanchilik taraqqiyoti.**

Janr taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, talqinlar, poetik tasvir xususiyati, adabiy tanqidiy qarashlar. Janrlar borasidagi yangiliklar barchasi mavzu atrofida ko‘rib chiqiladi.

**6-mavzu. O‘zbek adabiyotshunosligi istiqlol yillarida.**

Bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni tahlil qila olish, o‘zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotidagi poetik o‘zgarishlariga qiyoslash va ulardan xulosalar chiqara olish. Adabiy tanqid va adabiy jarayion masalalarini tahlil etish.

**III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. “Hozirgi adabiy jarayon” fanining maqsadi va vazifalari, uning xususiyatlari
2. Glaballashuv davri va adabiy jarayonning o‘zaro birligi.
3. Hozirgi o‘zbek she’riyatida mavzular rang-barangligi (Go‘zal Begim, Oydiniso ijodi misolida).
4. Postmodernizm an’analari va Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani.
5. Qissachilik taraqqiyoti va adabiy jarayon (Sh.Bo‘taev, A.Yo‘ldoshev qisalarimisolida).
6. Hikoyachiligidagi poetik o‘zgarishlar (Nazar Eshanqul, X.Do‘stmuhammad hikoyalari misolida).
7. Qissachilik taraqqiyoti va adabiy jarayon (Sh.Bo‘taev, A.Yo‘ldoshev qisalarimisolida).
8. Adabiy jarayon va taraxiy romanchilik.
9. Hozirgi dramaturgiyning umumiy taraqqiyoti.
10. “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan 2019-yildagi uchta hikoyani mustaqil tahlil etish.
11. Adabiy tanqidning adabiy jarayondagi o‘rni.
12. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida qahramon yaratish an’anasi.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yangi o‘zbek adabiyotini adabiyotshunos Qozoqboy

| | | |
|---|---|---|
| | Yo‘ldoshev tomonidan davrlashtirish masalasiga e’tiber qaratilishi.<br>2. Glaballashuv davri va adabiy jarayon.<br>3. Glaballashuv davri va adabiy jarayon.<br>4. Sharq yulduzi jurnalining 2018-2019-yilgi sonlarida chop etilgan biror romanni o‘qish va tahlil qilish.<br>5. Yoshlik jurnalida 2018-2019-yilda chop etilgan ikkita hikoyani tahlil etish.<br>6. Yoshlik jurnalida 2018-2019-yilda chop etilgan ikkita qissani tahlil etish.<br>7. Muhammad Yusufning ikkita she’rini yod olish va tahlil qilish.<br>8. Usmon Azim ijodidan ikkita she’r yod olish va tahlil qilish.<br>9. Rauf Parfi ijodidagi Turkiston mavzusidagi ikkita she’rni yod olish va tahlil qilish.<br>10. Shavkat Rahmon she’riyatidan ikkita she’r yod olish va tahlil etish.<br>11. Shavkat Rahmon she’riyatidan ikkita she’r yod olish va tahlil etish.<br>12. U.Normatov-adabiy tanqidchi (“Ijod sehri” misolida).<br>13. N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida ramziylik.<br>14. I.Mirzo she`riyatida Vatan mavzusi.<br>15. X.Rustamova she`riyatida lirik qahramon.<br>16.Adabiy jarayonda tarjimachilik taraqqiyoti. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>Glaballashuv davrida adabiyotning roli va vazifasi, hozirgi adabiy jarayondagi o‘zgarishlar, badiiylik mezonlari, badiiyat tarkibidagi o‘ziga xos talqin xususiyatlari bilan bir qatorda, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik va jahon adabiyotidagi etakchi tamoyillarning adabiy jarayondagi o‘rni va vazifalarini, janrlar tarkibidagi petik o‘zgarishlarni o‘rganish, mustaqil xulosalar chiqarish va tahlil etishdan iborat. BU *haqida tasavurga ega bo‘lishi*;<br>• Fanning predmeti, maqsad vazifalari va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo‘nalishlarini hozirgi adabiy jarayondagi o‘zgarishlarni tahlil eta olish.<br>• Istiqlol yillarida shakllangan badiiylik tarkibidagi o`zgarishlar, ungagi inson konsepsiyasining qo‘yilishi, tur va janrlar o‘rtasidagi |

| | |
|---|---|
| | sintizlashuv jarayonlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari lozim.<br>• Bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni tahlil qila olish, o'zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotidagi poetik o'zgarishlariga qiyoslash va ulardan xulosalar chiqara olish.<br>• Hozirgi adabiy jarayonda vujudga kelayotgan badiiy asarlani tahlil qilish tamoyillarini o'rganish va adabiy tanqidning o'rnini ko'rsata olish. Hozirgi adabiy jarayonda vujudga kelayotgan badiiy asarlani tahlil qilish tamoyillarini o'rganish va adabiy tanqidning o'rnini ko'rsata olish. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• Ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• tarqatma materiallar;<br>• ko'rgazmali qurollar;<br>• Kompyuter;<br>• Internet yangiliklari;<br>• muammoli ta'lim;<br>• qiyosiy tahlil. |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent, Sharq, 2007. – 352B..<br>2. Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik. – Toshkent, Sharq, 2007. – 320 B<br>3. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Samarqand, SamDU nashriyoti, 2019. -280<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent, Sharq, 2004. - 464 B.<br>2. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016. – 364 B.<br>3.Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2015. – 354 B.<br>4.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent, Fan, 2007. – 259 B<br>5.Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent, |

| | |
|---|---|
| | Akademnashr, 2013. – 335 B.<br>6.Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent, Yangi nashr, 2010. – 362 B.<br>7. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent, O'qituvchi, 2012. – 327 B.<br>8. O'zbek adabiy tanqidi. Antalogiya. – Toshkent, Turon Iqbol, 2011. – 542 B<br>**Axborot manbalari (saytlar):**<br>1. www. literature.uz<br>2. www. genhis philol.ru.<br>3. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism<br>4. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html |
| 7. | Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2020 -yil 22-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul**:<br>A.H.Toshpo'latov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.N.Nosirov - SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (ichki)<br>I.Sulaymonov – Mumtoz adabiyot kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (tashqi) |